



# AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 1-11 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

## SOLIQ TIZIMI XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI



**Alimqulov Hikmatilla Bahrom o‘g‘li**  
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** maqolada mamlakat soliq tizimi xavfsizligining ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Soliq tizimi xavfsizligiga nisbatan mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Soliq tizimi xavfsizligining maqsad va asosiy funksiyalari tahlil qilingan. Soliq tizimi xavfsizligini baholashning asosiy ko‘rsatkich(koeffitsiyent) laringing mazmun mohiyati ochib berilgan. Makro va mikro darajada soliq tizimi xavfsizligini baholash va ta’minlashgaga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xavfsizlik, soliq tizimi, soliq tizimi xavfsizligi, soliq to‘lovchilar, davlat byudjeti, soliq yuki, moliyaviy xavfsizlik.

**Abstract:** the article examines the scientific-theoretical and methodological aspects of the security of the country’s tax system. An author’s approach to the security of the tax system has been developed. The purpose and main functions of the security of the tax system are analyzed. The essence of the main indicators (coefficients) of the assessment of the security of the tax system is revealed. Scientific proposals aimed at assessing and ensuring the security of the tax system at the macro and micro level have been developed.

**Key words:** security, tax system, tax system security, taxpayers, state budget, tax burden, financial security.

**Аннотация:** в статье рассматриваются научно-теоретические и методологические аспекты безопасности налоговой системы страны. Разработан авторский подход к безопасности налоговой системы. Проанализированы цель и основные функции безопасности налоговой системы. Раскрыта сущность основных показателей (коэффициентов) оценки безопасности налоговой системы. Разработаны научные предложения, направленные на оценку и обеспечение безопасности налоговой системы на макро- и микроуровне.

**Ключевые слова:** безопасность, налоговая система, безопасность налоговой системы, налогоплательщики, государственный бюджет, налоговое бремя, финансовая безопасность.

### 1. Kirish

Ma’lumki, soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo‘lib hisoblangan. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan

ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir.

Soliqlar har qanday davlat shakllanishining asosiy manbasi hisoblanadi. Soliqlar, bu – davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vositasidir. Soliqlar davlatning moliyaviy resurslari va yillik byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Davlatning asosiy funksiyalari (ta'lim, tibbiyat, mudofaa, jamoat tartibini ta'minlash, davlat apparatini ta'minlash va h.k.) yig'ilgan soliqlar hisobiga bajariladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar qatorida yuksaltirish hamda aholini ijtimoiy himoyalash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanishda, ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirishda muhim dastaklardan biri hisoblangan soliq mexanizmini maqbullashtirish ahamiyatli masalalardan biridir.

Bugungi kunga kelib davlat iqtisodiyoti soliq tizimi bilan uzviy aloqada bo'lib, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar soliq tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga sabab bo'ladi va aksincha. Yana shu narsa ma'lumki yer yuzidagi barcha davlatlar o'z funksiya va vazifalarining uzlucksiz va to'liq ravishda amalga oshirish orqali taraqqiyotini ta'minlash uchun zarur mablag'larni shakllantirishda soliqlarga murojaat qiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish dastaklaridan biri sifatida soliqlardan foydalanadi.

Demak, soliqlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishi ekan, soliq tizimining xavfsizligini ta'minlash mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinn tutadi.

Soliq tizimi xavfsizligi soliq tushumlarini optimal hajmi bilan ta'minlash maqsadida davlatning fiskal manfaatlarini soliq to'lovchilarning manfaatlari bilan birlashtiradigan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan soliq siyosati samaradorligidan iborat.

Shuningdek, davlatning soliq tizimi xavfsizligi soliqqa tortish darajasini optimallashtirish: ko'p sonli, ba'zida asossiz soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish, xufyona iqtisodiyotning o'sishi, qonuniy biznesning qisqarishi, soliqlarni to'lashdan ommaviy ravishda bo'yin tov lash oqibatida soliq bazasining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida soliqqa tortish me'yorlarini tartibga solishni ko'zda tutadi.

Soliq tizimi xavfsizligi davlatning fiskal manfaatlari va soliq to'lovchilarning yakka tartibdagi va korporativ manfaatlarini optimal ravishda birlashtirishi mumkin bo'lgan davlat soliq siyosati samaradorligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, davlatning soliq xavfsizligi soliqqa tortish darajasini optimallashtirishni nazarda tutadi, chunki soliqqa tortish me'yorining haddan tashqari oshirib yuborilishi xufyona iqtisodiyotning ortishiga, qonuniy biznesning tugatilishiga, ommaviy ravishda soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lashga, so'ogra – soliq bazasining qisqarishiga olib keladi.

Soliq tizimining xavfsizligini ta'minlash – bu soliq tizimi tahdidlariga qarshi choralar va soliq risklarini oldini olish (kamaytirish) tizimidir.

Soliqlar iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir, chunki ular iqtisodiy tizimning barcha darajalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Soliq komponenti jamiyat, davlat, hududlar, korxonalar, oilalar va jismoniy shaxslar xavfsizligini qamrab oladi.

## 2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Soliq tizimi xavfsizligi yo‘nalishida kam sonli tadqiqotchilar ilmiy ish olib borishadi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan yagona yondashuvlar mavjud emas.

Ayrim iqtisodchi olimlar soliq yig‘iluvchanligi davlat iqtisodiy xavfsizligining asosiy obyekti sifatida qarashadilar<sup>1</sup>.

Boshqa iqtisodchi olim R.X.Musov<sup>2</sup> mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxonalarga yuqori soliq yuki, soliq qonunchiligining beqarorligi, soliq siyosatida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirmaslik kabilarni hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ichki omillari sirasiga kiritadi.

S.V.Lavrenko<sup>3</sup> esa, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va shu kabilarni moliyaviy xavfsizlikni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar, deb hisoblaydi.

Professor G.S. Vechkanov fikricha<sup>4</sup>, iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik tizimida soliq va soliq siyosati quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir qilish vositasi;
- davlatning soliq to‘lovchilari va hududlarga bog‘liqligi hamda qayta aloqa omili;
- davlatga tegishli bo‘lgan resurslar.

Binobarin, soliqlar va soliq siyosati, bir tomonidan, iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikni ta’minalashning resurslari va vositasi, ikkinchi tomonidan, xavf va qaramlik omilidir. Birinchi holda ular ijobiy rol o‘ynaydi, ikkinchisida – salbiy. Iqtisodiy xavfsizlik yoki tahdid omili sifatida soliq va soliq siyosatining ahamiyati aniq shart-sharoitlar, iqtisodiy rivojlanish bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari, davlat tomonidan amalgalashuviga iqtisodiy siyosatning tabiat, davlat hokimiyatining barqarorligi bilan belgilanadi.

Moliyaviy xavfsizlik yo‘nalishida tadqiqot olib borgan yirik iqtisodchi olimlardan biri professor Ye.V. Karaninaning yondashuviga ko‘ra<sup>5</sup>, davlatning soliq xavfsizligi davlatning soliq siyosati samaradorligi bilan belgilanadi, u davlatning fiskal manfaatlarini va soliq to‘lovchilarning shaxsiy, korporativ manfaatlarini optimal tarzda birlashtira oladi. Soliq xavfsizligi muammosi davlatni optimal zarur bo‘lgan soliq tushumlari miqdori bilan ta’minalashdan kelib chiqadi. Davlatning fiskal xavfsizligiga ko‘pincha, asossiz soliq imtiyozlari ta’sir qiladi. Shu bilan birga, davlatning soliq xavfsizligi soliqqa tortish darajasini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi, chunki soliq stavkasini haddan tashqari oshirish yashirin iqtisodiyotning o‘sishiga, qonuniy biznesning qisqarishiga, soliqlarni to‘lashdan ommaviy ravishda bo‘yin tov lashga olib kelishi mumkin, bu esa soliq bazasini kamayishiga olib keladi.

<sup>1</sup> Общая теория государства и права / Академический курс в 2-х томах. Отв. редактор М.Н. Марченко//М: Изд-во «Зерцало». -1998. – с.93.

<sup>2</sup> Мусов Р.Х. Правовые основы налогового регулирования и экономическая безопасность в условиях рыночных отношений. - М.: Фонд поддержки ученых, 2001.

<sup>3</sup> Лавренко С.В. Механизм обеспечения финансовой безопасности государства. Автореф.дисс. на соискание уч.степ. кан. экон. наук. -СПб.: 2006. -с.18.

<sup>4</sup> Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2007. – с.159-161.

<sup>5</sup> Каранина Е.В. Финансовая безопасность.. Учебное пособие – СПб: ИЦ Интермедиа, 2016. – с.15-16.

Boshqa iqtisodchi olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra<sup>6</sup>, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq xavfsizligi – bu faoliyatning barcha sohalarida uning xavfsiz va barqaror rivojlanishini hamda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lovchining o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyatini ta’minlaydigan shartlar va omillar majmuidir.

Shuningdek, soliq xavfsizligiga oid boshqa tadqiqotlarga ko‘ra<sup>7</sup>, tashkilotning soliq xavfsizligi tizimi – bu tashkilot xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga tahdidining oldini oladigan soliqning huquqiy munosabatlari sohasidagi tizimi bo‘lib, u biznesni ichki va tashqi omillardan himoya qilishga qaratilgan boshqaruva tizimi va tartiblarining o‘zarobog‘liq tashkiliy elementlari to‘plamidir. Soliq xavfsizligi tizimining elementlari quyidagilardan iborat:

- mulkdorlar va boshqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan maqsad, strategiya va siyosat;
- iqtisodiy salohiyat va uning resurs ta’minoti (moddiy, kadrlar, axborot va boshqa resurslar);
- xatarlar va tahidlarning salbiy oqibatlarini (shu jumladan soliq) maqbul past darajaga tushirishga qodirligi.

Soliq xavfsizligi tushunchasi davlat va hududlarning soliq-byudjet siyosatini samarali amalga oshirish omili bo‘lib, u molivayi-iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi hamda soliq ma’muriyatchiligi sohasidagi byudjetga ma’lum darajadagi soliq to‘lovlarini barqaror to‘ldirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Hozirgi kunda iqtisodiy hamjamiyat tomonidan byudjetning soliq tushumlari bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi soliq xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida qaralmoqda<sup>8</sup>.

Davlatning soliq xavfsizligi – bu byudjetga soliq to‘lovlarining kafolatlangan tushumini ta’minlaydigan, davlat manfaatlarini himoya qilishni, soliq siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligini va hatto, noqulay ichki va tashqi jarayonlarning rivojlanish sharoitlarida ham mudofaa salohiyatini yetarli darajada ta’minlaydigan iqtisodiyot va davlat institutlarining holatidir<sup>9</sup>.

Soliq xavfsizligi – bu soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan soliqlar va soliq to‘lovlarini undirishni, soliq nazoratini amalga oshirishni, shuningdek, soliqqa tortishni ta’minlovchi omillarga qarshi turishni ta’minlaydigan soliq tizimining himoyalanganlik holatidir<sup>10</sup>.

<sup>6</sup> Миронова О.А. и др. Налоговая безопасность: монография для магистров вузов, обучающихся по направлениям подготовки «Экономика», «Юриспруденция» / под ред. О.А. Мироновой. -М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2017. -с.22-23.

<sup>7</sup> Азарская М.А., Щербакова Н.В. Налоговая безопасность организации и ее обеспечение в системе внутреннего контроля // Учет. Анализ. Аудит. 2017. № 6. С. 38-49.

<sup>8</sup> Никулина Е.В., Чистникова И.В., Орлова А.В. Моделирование и прогнозирование бюджетно-налоговой безопасности регионов России: монография. -Белгород: Эпиграф, 2015. 100 с.; Слепнева Ю.В. Налоговая безопасность: сущность и факторы, ее определяющие на уровне региона // Наука и бизнес: пути развития. 2017. № 1 (67). -с. 40-45.; Тимофеева И.Ю. Основные принципы налоговой безопасности // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2010. Т. 6. № 13 (70). -с. 59-64.

<sup>9</sup> Тихонов Д.Н. Основы налоговой безопасности. – М.: Аналитика-Пресс, 2002.

<sup>10</sup> Кузнецова О.Н. Налоговая нагрузка на предприятие и способы ее оптимизации // Вестник Брянского государственного университета. 2012. -№ 3. -с.34-37.

Tashkilotning soliq xavfsizligi – bu soliq to‘lovchining moliyaviy-iqtisodiy holati bo‘lib, u soliq risklarini minimallashtirish orqali ta’minlanadi, bunda tadbirkorlik subyektlari soliqlarni to‘liq va o‘z vaqtida to‘laydi, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlar esa qonun bo‘yicha soliq to‘lovchining himoyasini ta’minlaydi. Bu so‘f foydaning o‘sishiga va soliq to‘lovchilarning iqtisodiy xavfsizligini oshirishga yordam beradi. Tashkilotning soliq xavfsizligini ta’minlashning asosi soliq risklari va soliq yukini, ularni tashkilotning iqtisodiy xavfsizligi va samaradorligiga ta’sirini baholashning maxsus usullari va vositalardan foydalangan holda baholashdir<sup>11</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, soliq xavfsizligi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat byudjetini barqaror to‘ldirishni kafolatlaydigan soliqqa tortish tizimi holati sifatida qarash mumkin. Soliq xavfsizligining mohiyatini mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlash mumkin. Soliq xavfsizligi mezoni soliq va soliqqa tortishning asosiy funksiyalarini bajarish nuqtayi nazaridan soliqqa tortish tizimini baholashni anglatadi.

E.A. Safoxina yondashuviga ko‘ra<sup>12</sup>, davlatning soliq xavfsizligi moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishi bo‘lib, u davlat va soliq tizimi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha subyektlarning soliq manfaatlarini himoya qilish bilan tavsiflanadi. Muallifning fikricha, soliq xavfsizligi, birinchi navbatda, davlat moliyaviy xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Shu munosabat bilan davlatning soliq xavfsizligi, birinchi navbatda, uning iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy tarkibiy qismi bilan bog‘liq.

A.I. Krivsovaning so‘zlariga ko‘ra<sup>13</sup>, tashkilotning soliq xavfsizligi soliqni optimallashtirish bo‘lib, u soliq to‘lovchining hayotiyligini va o‘zgaruvchan soliq sharoitida to‘laqonli xo‘jalik yurituvchi subyektning xususiyatlarini, soliq risklarini boshqarishning samarali mexanizmlari bilan saqlab qolish qobiliyatini ta’minlaydi. Soliq xavfsizligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha harakatlarini tashkil etish va xavfsizlik omilini hisobga olgan holda soliqni rejalshtirish uchun zarurdir (salbiy oqibatlarga olib kelmaydigan ijobiy moliyaviy natijalarni olish).

Yuqoridagi yondashuvlardan ko‘rinadiki, soliq xavfsizligi makro va mikrodarajada bo‘lishi mumkin. Makro darajadagi soliq tizimi xavfsizligiga tashqi va ichki omillar ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Mikro darajadagi soliq tizimi xavfsizligi esa, korxona va tashkilotning rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Soliq xavfsizligini ta’minlash uchun uning baholash indikatorlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu ko‘rsatkichlarning qiymatiga qarab mamlakatning soliq tizimidagi xavf-xatarlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Fikrimizcha, soliq xavfsizligini baholash indikatorlari har bir

<sup>11</sup> Воронцов Б.В. Налоговая безопасность государства и экономических систем // Проблемы современной экономики, N 3 (27), 2008.

<sup>12</sup> Сафохина Е.А. Налоговая безопасность в системе экономической безопасности Российской Федерации // Мировая экономика: проблемы безопасности. 2019, № 1. -с.15-20.

<sup>13</sup> Кривцов А.И. Концептуальный подход к обеспечению налоговой безопасности организаций // Актуальные проблемы науки, экономики и образования XXI века: материалы II Международной научно-практической конференции, 5 марта – 26 сентября 2012 года: в 2-х ч. Ч. 2 / Отв. ред. Е.Н. Шереметьева. – Самара: Самарский институт (фил.) РГТЭУ, 2012. – с. 180-185.

mamlakatning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, soliq qonunchiligi va siyosatiga qarab ishlab chiqilishi lozim.

Ayrim iqtisodchilarning fikriga ko‘ra<sup>14</sup>, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq xavfsizligini baholashda 14 ta ko‘rsatkichlarni va ularni chegaraviy qiymatlarini taklif etadi. Jumladan, soliq yuki darajasi, QQS bo‘yicha soliq imtiyozlari ulushi, xarajatlarning o‘sish sur’ati daromadlarning o‘sish sur’atidan oshib ketishi va boshqalar.

Soliq xavfsizligi tizimining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- soliq tizimi faoliyatining prognoz qilingan va real ko‘rsatkichlarini chegaraviy qiymatlarining kritik vaziyatlarini aniqlash;
- soliq tizimini (mintaqaviy va mahalliy darajalar) soliq xavfi zonasidan chiqarish va tahdidlar oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- mamlakatda soliq xavfsizligi nuqtayi nazaridan soliq masalalari bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va qarorlarni ekspertizadan o‘tkazish.

Soliq xavfsizligi tushunchasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: ma’muriy-huquqiy; tashkiliy-tarkibiy; axborot-tahliliy; professional va rasmiy; jismoniy<sup>15</sup>.

Demak, soliq xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ichki va tashqi tahidlardan himoya qilish darajasi bo‘lib, soliq tizimi davlat byudjetiga soliq to‘lovlarning samarali tushumini barqaror ta’minalash qobiliyatida ifodalanadi.

Professor M.Ya. Kornilov<sup>16</sup> tomonidan davlat soliq xavfsizligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni tavsija etildi:

- har bir shaxsning iqtisodiy faoliyatida yuqori darajadagi qonun ustuvorligi;
- turli ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy manfaatlari muvozanati (jamiyatdagi iqtisodiy tabaqalanishning past darajasi);
- davlat xo‘jalik faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati;
- xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy hamkorlikda teng ishtirok etishdan daromadlar mavjudligi;
- mamlakatning mudofaa qobiliyatining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini yetarli darajada ta’minalash imkoniyati mavjudligi;
- sanoat ishlab chiqarish hajmi va sur’atlari;
- iqtisodiyotning mutanosib tarmoq tuzilmasi;
- inflyatsiya darajasi;
- davlat dasturlarini maqsadli moliyalashtirish;
- bozordagi raqobat darajasi;
- kapitalni chet elga eksport qilish darajasi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, soliq xavfsizligi holatini baholashda uning ko‘rsatkichlarini o‘zi emas, balki ularning chegaraviy qiymatlari asosiy rol o‘ynaydi<sup>17</sup>.

<sup>14</sup> Попов А.Ю., Чепулянис А.В. Современные подходы к оценке налоговой безопасности хозяйствующих субъектов // Экономика. Информатика. 2023. Т.50, № 2(346–356).

<sup>15</sup> Тимофеева И.Ю. Экономический анализ, классификация и оценка налоговых рисков в период декриминализации налоговых отношений / И.Ю. Тимофеева // Экономический анализ. –2010. –№ 25. –с. 23.

<sup>16</sup> Корнилов М.Я. Экономическая безопасность России (основы теории и методологии исследования): учебное пособие. – М.: Изд-во РАГС, 2004. – 152 с.

<sup>17</sup> Экономическая безопасность. Производство – Финансы – Банки / под ред. В.К.

Yu.V. Savin<sup>18</sup> tadqiqot ishida soliq xavfsizligini baholashda asosiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ko‘rsatkichlarni taklif qildi hamda ularning quyidagi chegaraviy qiymatlarini asosladi:

- iqtisodiy o‘sish sur’ati (yiliga kamida 0,5-1,5%);
- byudjet taqchilligining YAIMga nisbati (4% dan ko‘p bo‘lmagan);
- inflyatsiya darajasi (kamida 1 foiz va 6 foizdan ko‘p bo‘lmagan);
- yashirin iqtisodiyotning YAIM ga nisbati (20 foizdan ko‘p bo‘lmagan).

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, soliq tizimi xavfsizligini baholashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Shu sababli, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish xususiyati va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda soliq tizimi xavfsizligi baholash ko‘rsatkichlarini shakllantirish hamda ularni doimiy monitoring qilib turish maqsadga muvofiq.

### **Soliq tizimi xavfsizligi baholashga nisbatan metodologik yondashuvlar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-yanvardagi “Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-sod qarorining 2-ilovasi “Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga muvofiq “Hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash bo‘yicha metodika”si ishlab chiqilgan. Ushbu nizomga ko‘ra, soliq tizimi xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan 2 ta ko‘rsatkich keltirilgan:

1. Yarim yil davomida tegishli hududda tadbirkorlik subyektlaridan Davlat byudjetiga (Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar) kelib tushgan tushumlarning ushbu hududdagi har 1 000 nafar faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdorini aniqlash yo‘li bilan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I_{7.1} = (T_t / T_{hf}) \times 1000$$

bunda:

$I_{7.1}$  – indikator miqdori (so‘mda);

$T_t$  – tegishli hududdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan Davlat byudjetiga to‘langan umumiyl to‘lovlar (soliq va boshqa majburiy to‘lovlar) miqdori (so‘mda);

$T_{hf}$  – tegishli hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni.

2. Yarim yil davomida tegishli hududda tadbirkorlik subyektlaridan Davlat byudjetiga (Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar) kelib tushgan tushumlarning miqdorini aniqlash yo‘li bilan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I_{7.2} = T_t - T_{hd}$$

bunda:

Сенчагова. –М.: Финстатинформ, 1998. – 621 с.

<sup>18</sup> Савин Ю.В. Обеспечение экономической безопасности в бюджетно-налоговой системе Российской Федерации: автореф. дис. .... канд. экон. наук. – М., 2011. - с. 19-20.

I<sub>7.2</sub> – indikator miqdori (so‘mda);

T<sub>Т</sub> – tegishli hududdagi Davlat byudjetiga to‘langan soliq to‘lovlari (jismoniy shaxslardan va davlat organlaridan undirilgan soliq to‘lovlari bundan mustasno) miqdori (so‘mda);

T<sub>hd</sub> – tegishli hududda faoliyat yuritayotgan davlat ishtirokidagi tashkilotlar tomonidan to‘langan soliq to‘lovlari.

Fikrimizcha, soliq tizimi xavfsizligini baholashda yuqoridagi 2 ta ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish soliq tizimi xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi:

### **1. Soliq yuki ko‘rsatkichi.**

Soliq yuki 2 xil hisoblanadi:

- A. Mikrodarajada hisoblanadigan soliq yuki ko‘rsatkichi
- B. Makrodarajada hisoblanadigan soliq yuki ko‘rsatkichi.

**Mikrodarajada hisoblanadigan soliq yuki ko‘rsatkichi:**

$$\text{SYU(mikro.)} = (\text{BS} : \text{YAT}) * 100\%$$

bu yerda, BS – korxona tomonidan yil davomida to‘langan barcha soliqlar summasi; YAT – korxonaning mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi tushumi summasi.

**Makrodarajada hisoblanadigan soliq yuki ko‘rsatkichi:**

$$\text{SYU(makro.)} = (\text{DS} : \text{YAIM}) * 100\%$$

bu yerda, DS – davlat byudjetiga 1 yil davomida tushgan jami soliqlar summasi; YAIM – nominal yalpi ichki mahsulot.

Ma’lumki, soliq yukining oshib ketishi byudjet daromadlarining ko‘payishiga olib kelmaydi. Chunki, soliqlardan shakllanayotgan daromadlar hajmining ko‘payishi har doim ham soliqqa tortiladigan bazaning o‘sishi bilan proporsional bo‘ladi, ammo har doim ham soliq stavkasining o‘sishiga proporsional bo‘lavermaydi.

### **2. Soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasi.**

Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun muddati undirilmagan soliqlar summasi hisoblangan jami soliqlar summasiga bo‘linadi va olingan natija 100 foizga ko‘paytiriladi.

Ushbu ko‘rsatkich soliq tizimi moliyaviy xavfsizligini ta’minlash nuqtai-nazaridan kamida 90 foiz bo‘lishi kerak.

Soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasi bir tomondan soliq tushumlari bo‘yicha proqnoz ko‘rsatkichlarining ijobiylarini ifodalasa, boshqa tomondan, soliq qarzdorligining byudjet daromadlari hajmiga salbiy ta’sir etganligini ham tavsiflaydi.

### **3. Soliq mustaqilligi koeffitsiyenti.**

$$\text{SMK} = \text{SD} : \text{BD}$$

bu yerda, SD – soliq daromadlari; BD – byudjet daromadlari.

Soliq mustaqilligi koeffitsiyentining pasayishi umumiy byudjet daromadlarida soliqlar ulushining kamayganligini ko'rsatadi.

#### **4. Soliq imtiyozlari darajasi koeffitsiyenti.**

Ushbu koeffitsiyent soliq imtiyozlari berilishi munosabati bilan byudjetdan yo'qotilgan soliqlar ulushini hisoblash imkonini beradi. Bu koeffitsiyent quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{si} = SS / SP$$

Bu yerda, SS – davlat byudjetiga olinmagan soliqlar summasi; SP – mamlakat soliq potensiali.

**5. Soliq qarzi darajasi koeffitsiyenti.** Ushbu koeffitsiyent alohida soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzlarning paydo bo'lishi sababli byudjetdan yo'qotilgan soliqlar ulushini aks ettiradi:

$$K_{sq} = SQ / SP$$

bu yerda SQ – soliq qarzi va soliq sanksiyalari yuzaga kelganligi sababli davlat byudjetiga olinmagan soliqlar summasi.

#### **6. Peniyani hisoblash koeffitsiyenti.**

$$K_{ph} = P / HS$$

bu yerda, P – byudjetga to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazmaganlik uchun hisoblangan peniya; HS – soliq to'lovchining taqdim etgan deklaratsiyasiga muvofiq hisoblangan soliqlar.

Peniyani hisoblash koeffitsiyenti soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga majburiy to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazishni ko'rsatadi. Peniya va soliqlar nisbati past bo'lsa, soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga majburiy to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazilmaganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi koeffitsiyent(ko'rsatkich)lardan tashqari soliq xavfsizligini baholash uchun boshqa bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud bo'lib, jumladan, soliq potensiali koeffitsiyenti, soliq intizomi ko'rsatkichi, soliqlarni yashirish darajasi koeffitsiyenti va mikrodarajadagi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish mumkin. Shuningdek, koeffitsiyent(ko'rsatkich)larning me'yoriy darajasi(chegaraviy qiymati)ni aniqlash alohida o'rin tutadi. Ularni keyingi tadqiqotlarda batafsil ko'rib chiqamiz.

### **3. Xulosa va takliflar**

1. Soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'ringa ega. Mamlakat soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash uchun birinchi navbatda, baholash ko'rsatkich(koeffitsiyent)larini aniqlash zarur. Shu bilan bir qatorda ushbu ko'rsatkich(koeffitsiyent)larni me'yoriy darajasini (chegaraviy qiymati) aniqlash, soliq tizimi xavfsizligiga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni bartaraf etishga imkon beradi.

2. Soliq tizimi faoliyatida prognoz qilingan va haqiqiy ko'rsatkichlarning me'yoriy (chegaraviy) qiymatlariga yetadigan yoki ulardan oshib ketgan kritik vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash lozim.

3. Soliq tizimining soliq riski zonasidan chiqib ketishi bo'yicha eng samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, tahdidlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

4. Raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish va soliq to'lovchilar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda soliq madaniyati darajasini tizimli ravishda oshirib borish lozim.

5. Moliyaviy raqamlashtirish sharoitida kiberfiribgarlik tahdidlarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan soliq tizimi xavfsizligi bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini takomillashtirish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-yanvardagi "Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 8-son qarori.
2. Общая теория государства и права / Академический курс в 2-х томах. Отв. редактор М.Н. Марченко//М: Изд-во «Зерцало». -1998. – с.93.
3. Мусов Р.Х. Правовые основы налогового регулирования и экономическая безопасность в условиях рыночных отношений. - М.: Фонд поддержки ученых, 2001.
4. Лавренко С.В. Механизм обеспечения финансовой безопасности государства. Автореф.дисс. на соискание уч.степ. кан. экон. наук. -СПб.: 2006. -с.18.
5. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2007. – с.159-161.
6. Каранина Е.В. Финансовая безопасность. Учебное пособие. – СПб: ИЦ Интермедиа, 2016. – с.15-16.
7. Миронова О.А. и др. Налоговая безопасность: монография для магистров вузов, обучающихся по направлениям подготовки «Экономика», «Юриспруденция» / под ред. О.А. Мироновой. -М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2017. -с.22-23.
8. Азарская М.А., Щербакова Н.В. Налоговая безопасность организации и ее обеспечение в системе внутреннего контроля // Учет. Анализ. Аудит. 2017. № 6. С. 38-49.
9. Никулина Е.В., Чистникова И.В., Орлова А.В. Моделирование и прогнозирование бюджетно-налоговой безопасности регионов России: монография. -Белгород: Эпизентр, 2015. 100 с.; Слепнева Ю.В. Налоговая безопасность: сущность и факторы, ее определяющие на уровне региона // Наука и бизнес: пути развития. 2017. № 1 (67). -с. 40-45.; Тимофеева И.Ю. Основные принципы налоговой безопасности // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2010. Т. 6. № 13 (70). -с. 59-64.
10. Тихонов Д.Н. Основы налоговой безопасности. – М.: Аналитика-Пресс, 2002.
11. Кузнецова О.Н. Налоговая нагрузка на предприятие и способы ее оптимизации // Вестник Брянского государственного университета. 2012. -№ 3. -с.34-37.

12. Воронцов Б.В. Налоговая безопасность государства и экономических систем // Проблемы современной экономики, N 3 (27), 2008.
13. Сафохина Е.А. Налоговая безопасность в системе экономической безопасности Российской Федерации //Мировая экономика: проблемы безопасности. 2019, № 1.-с.15-20.
14. Кривцов А.И. Концептуальный подход к обеспечению налоговой безопасности организаций // Актуальные проблемы науки, экономики и образования XXI века: материалы II Международной научно-практической конференции, 5 марта – 26 сентября 2012 года: в 2-х ч. Ч. 2 / Отв. ред. Е.Н. Шереметьева. – Самара: Самарский институт (фил.) РГТЭУ, 2012. – с. 180-185.
15. Попов А.Ю., Чепулянис А.В. Современные подходы к оценке налоговой безопасности хозяйствующих субъектов // Экономика. Информатика. 2023. Т.50, № 2(346–356).
16. Тимофеева И.Ю. Экономический анализ, классификация и оценка налоговых рисков в период декриминализации налоговых отношений / И.Ю. Тимофеева // Экономический анализ. –2010. –№ 25. –с. 23.
17. Корнилов М.Я. Экономическая безопасность России (основы теории и методологии исследования): учебное пособие. – М.: Изд-во РАГС, 2004. – 152 с.
18. Экономическая безопасность. Производство – Финансы – Банки / под ред. В.К. Сенчагова. –М.: Финстатинформ, 1998. – 621 с.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

